



**О'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING
JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDAGI O'RNI
РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА**

**The role of the National Guard of the Republic of
Uzbekistan in maintaining public order**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tinglovchisi mayor Shukurov Bobur O'tkirovich

Annotation: Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash brigadalari, davlatning ichki xavfsizligini ta'minlash, tartibni saqlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada jamoat tartibini saqlash brigadalarining jamoat tartibini saqlashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, jamoat tartibini saqlash, xavfsizlik, jinoyatchilikni oldini olish, patrul-post xizmati, jamoat joylari, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash brigadasi

Аннотация: Подразделения общественного порядка Национальной гвардии играют важную роль в обеспечении внутренней безопасности государства, поддержании порядка и обеспечении социальной стабильности в обществе. В статье анализируется роль отрядов охраны общественного порядка в поддержании общественного порядка.

Ключевые слова: Национальная гвардия, общественный порядок, безопасность, предупреждение преступности, патрульно-постовая служба, общественные места, общественная безопасность, бригада общественного порядка.

Abstract: The National Guard's public order brigades play an important role in ensuring the internal security of the state, maintaining order, and ensuring social stability in society. This article analyzes the role of public order brigades in maintaining public order.



Key words: National Guard, public order, security, crime prevention, patrol post service, public places, public safety, public order brigade.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi – mamlakatning ichki xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarni himoya qilish va davlat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tashkilotdir. Milliy Gvardiya O‘zbekistonning ichki xavfsizlik tizimida muhim o‘rin tutadi va uning asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash, davlatni har qanday tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdir.

Milliy Gvardiya 2017-yil 4-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida"gi farmon bilan tashkil topdi. Milliy Gvardiyaning tashkil etilishi bilan, davlat ichki xavfsizlikni mustahkamlash, davlat organlari va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarni oldini olish va ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashishda o‘zining samarali rolini ko‘rsatishni maqsad qilgan.

Milliy Gvardiyaning tashkil etilishi, mamlakatda jamoat tartibini saqlashni yanada samarali tarzda amalga oshirish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, Milliy Gvardiya o‘zining faoliyatini faqat jamoat tartibini saqlash bilan cheklamaydi, balki huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda jinoyatchilikka qarshi kurashishda, xavfsizlikni ta’minlashda va milliy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Jamoat tartibi – bu fuqarolar orasida tinchlikni, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan barcha harakatlardir. Jamoat tartibining saqlanishi, o‘z navbatida, davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishni ta’minlaydi. Milliy Gvardiya shu vazifani bajarishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi o‘zining kuchli tashkiliy strukturasiga, malakali kadrlariga, zamonaviy uskunalarini va texnologiyalariga asoslanib, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashda, jamoat joylaridagi tartibni nazorat qilishda va jinoyatlarning oldini olishda ishtirok etadi.

Milliy Gvardiya tashkil etilgunga qadar, O'zbekistonda ichki xavfsizlikni ta'minlash asosan ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, davlat xavfsizligini mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarni himoya qilish uchun maxsus va yaxlit tizimning zarurligi tug'ildi. Milliy Gvardiya o'zining tashkil topishi bilan bu bo'shliqni to'ldirishga va jamoat xavfsizligini ta'minlashni yangi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 11-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida Milliy gvardiyaning xizmat faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha alohida to'xtalib o'tdi. Ya'ni Keyingi paytlarda Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritganda, Milliy gvardiya tashkil etilganini alohida ta'kidlash lozim. Ma'lumki, bu maxsus harbiy bo'linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan.

Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta'minlash tizimidagi muhim bo'g'inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatdi.

Afsuski, oxirgi 15–20 yil davomida jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalariga noto'g'ri yondashuv tufayli bu muhim masala e'tiborimizdan chetda qolib keldi. Jumladan, Xavfsizlik kengashi ham bunga yetarlicha e'tibor bermaganini ochiq aytish kerak. Bu tizimning aniq egasi bo'limgan, bu masalalar bilan shug'ullanadigan bo'linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo'lib kelgan. Shu sababli ushbu bo'linmalar o'z o'rnini topolmadi. Jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash bo'yicha o'quv mashqlari deyarli o'tkazilmagan. Tezkor vazifalarni bajarish zarur bo'lgan paytda turli byurokratik to'siqlarga duch kelingan. Natijada tezkor qarorlar o'z vaqtida qabul qilinmagan, vazifalar samarali bajarilmagan.

Holbuki, butun dunyoda mamlakat ichida tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan armiya emas, Mudofaa vazirligi emas, balki alohida tuzilmalar shug'ullanadi.

Ma'lumki, bugungi kunda biz «Xavfsiz shahar — xavfsiz mamlakat» konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu yangi tuzilma, ya'ni, Milliy gvardiya tashkil etildi. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas'ul va javobgar etib belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Shu munosabat bilan Milliy gvardiya qo'mondoni B.Toshmatovga tashkiliy ishlarni tezroq yakunlab, o'zining bevosita vazifasi bo'lgan jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasi bilan yaqindan shug'ullanish topshiriladi. Bundan buyon mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasiga Milliy gvardiya shaxsan javobgar bo'ladi¹.

18-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida” O'RQ-647-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy vazifalari keltirib o'tildi.

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarni qo'zg'atish va ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

¹ Shavkat Mirziyoyev Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 26 yilligi arafasida Xavfsizlik kengashi yig'ilishi 2018-yil, 11-yanvar

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlash;

qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalarini bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘sishlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashish.

Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Ushbu qonunda yana O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy prinsiplari belgilab o‘tildi.

Qonuniylik prinsipi - Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishi hamda ularni bajarishi shart.

Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chetga chiqish, ularning sabablari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qonuniylikni buzishdir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish prinsipi - Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish asosida amalga oshiradi.

Milliy gvardiya fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) fuqaroning shaxsiy hayotiga taalluqli bo‘lgan, uning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma’lumotlarni, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, oshkor qilish huquqiga ega emas.

Yagonalik prinsipi - Milliy gvardiya Milliy gvardiyaning qo‘mondoni rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil qiladi.

Milliy gvardiya qo‘mondoni o‘z faoliyatini amalga oshirishda bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi.

Mustaqillik prinsipi - Milliy gvardiya o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradi.

Milliy gvardiya faoliyatiga davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va mansabdor shaxslarning aralashuvi taqiqilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonida Milliy gvardiyaga alohida urg‘u berib o‘tildi. Bunda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalarini tomonidan amalga oshiriladi;

jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi;

vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi;

terorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etadi;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlaydi;

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

“Jinoyat o‘choqlari” hisoblangan hududlarda tungi vaqtida ichki ishlarni organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalarining harbiy xizmatchilari va xodimlaridan iborat avtopatrul, otliq va piyoda patrullarning uzluksiz faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning vakolat doirasini belgilash va funksional majburiyatlarini tasdiqlash.

Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda Milliy gvardiya bo‘linmalarini tomonidan jamoat tartibini saqlash bo‘yicha faoliyat olib

borishning batafsil va aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda jamoat joylari, istirohat bog‘lari va ko‘ngilochar maskanlarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning havfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish bo‘yicha quyidagi xizmat turlari tashillashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 y
2. 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-sonli “**Ichki ishlar organlari to‘g‘risida**” qonuni
3. 18.11.2020 yildagi O‘RQ-647-sonli “**O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida**” qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya qo‘mondonining 2018 yil 5 avgust kunidagi № 155 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari tomonidan fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda mustaqil ravishda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash xaqida” gi buyrug‘i